

# Yangi tayinlov



**Tursunov Murodilla Xolsaidovich** - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining Surxondaryo viloyati filiali rahbari lavozimiga tayinlandi.

M.Tursunov 1979-yilda Sherobod tumanida tug'ilgan. 2000-yilda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetini va 2012-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasini tamomlagan. Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi - buxgalteriya hisobi va audit.

Mehnat faoliyati davomida Markaziy bankning Surxondaryo viloyati boshqarmasida bosh iqtisodchi, bo'lim boshlig'i, birinchi o'rindbosar va boshqarma boshlig'i lavozimlarida, shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Budget va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi a'zosi bo'lib faoliyat yuritgan.

Tayinlovga qadar Surxondaryo viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo'yicha yordamchisi kotibiyati mudiri lavozimida mehnat qilib kelayotgan edi.